

O'zbekistonda tahsil olayotgan
xorijlik talabalar soni:

2019/2020-o'quv yilida:
3593 nafar

2020/2021-o'quv yilida:
4219 nafar

2021/2022-o'quv yilida:
5140 nafar

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

34 (16487)
2022-yil, 1-iyun
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar siyosati
2-bet

Ko'rib, ko'rmaslikka
olingan muammo

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-bet

"Street
WorkOut"

Birga o'qiyimiz!
7-bet

Xalqiga haykal
bo'lgan asar



21-29-MAY KUNLARI BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDA BO'LIB O'TGAN XALQARO
SHAXMAT TURNIRIDA NODIRBEK ABDUSATTOROV CEMPIONLAR SAFIDAN JOY OLDI.

G'OLIBLAR KUTIB OLINDI

2-betga
qarang ↓

KO'RIB, KO'RMASLIKKA OLINGAN MUAMMO



Xorazmda ko'p yillardan beri yechimini kutib turgan eng katta muammolardan biri bu bolalar reabilitatsiya markazini tashkil etishdir. Ajablanarlisi, shu paytgacha bolalar reabilitatsiya markazining tashkil qilish masalasi hokimlik tomonidan ko'rib chiqilmagan, hech qanday chora-tadbirlar ko'rilgan.

Nogiron bola tarbiyalayotgan oilalarning bir qismi farzandini katta mablag' ajratib Toshkentdagi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markaziga olib borsa, ko'pchilik oilalar bunday imkoniyatga ega emas. Imkoniyati cheklangan bolalarning bir qismi maxsus internatlarda, bir qismi yakka tartibdagi uy ta'limida bo'lsa, ko'pchiligi psixik va jismoniy rivojlanishda nuqsonga ega bo'lgan bolalar diagnostikasi komissiyasi tomonidan o'qishga layoqatsiz degan bir umrlik tang'a olgan.

Shunday ekan, autizm, daun sindromiga chalingan, nogiron

yoshlarning muammolarini yechishga amaliy yordam berish bizning oldimizda turgan dolzarb masalardan biridir. Shu maqsadda, viloyat Yoshlar markazida 15 turdagi nogironligi bo'lgan 400 nafardan ortiq yoshlarni qamrab olgan Inkluziv ta'lim markazi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Viloyat bo'yicha 300 nafardan ortiq nogiron bolalari bor oilalar bilan ish olib bormoqdamiz. Bugungacha Inkluziv ta'lim to'garigiga jami 221 nafar oila farzandlari keldi, 10 nafar oilaning esa yashash joylariga borib mashg'ulotlar va amaliy yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Zamonaviy dunyo juda faol va tez o'zgarib turadi. O'zgarishlar odamlar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida tez-tez sodir bo'ladi. Yoshlarning dolzarb muammolari butun jami-

yatning kamchiliklarini aks ettiradi. Bu kamchiliklarni hal qilish esa butun jamiyatning farovonligiga ta'sir qiladi. Buni to'la anglagan holda yoshlarning muammolari va murojaatlari bilan ishlashning yangicha tizimi joriy etilib, yoshlarga @yoshlardaftari.uz elektron platformasi yoki 1093 qisqa raqamli "call-markaz" orqali onlayn ariza qoldirish va murojaat holati to'g'risida ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

Bugungi kunga qadar "Yoshlar daftari"ga kirish uchun 13083 ta (platforma orqali 9966 ta, "call-markaz" orqali 2389 ta, sektorlar tomonidan 192 ta, telegram boti orqali 130 ta hamda mahalla yetakchilari



Sardor POLVONOV,
Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig'i

tavsiyasiga ko'ra 406 ta) onlayn murojaat kelib tushdi.


@yoshlardaftari.uz elektron platformasi orqali kelib tushgan murojaatlarning 7 264 tasi (55,5 foiz) sektorlar tomonidan tasdiqlangan, 5 521 tasi (42,2 foiz) rad etilgan, ko'rib chiqilayotgan murojaatlar esa 298 tani (2,3 foiz) tashkil etmoqda.

Yoshlar — ertangi kun davomchilari. Ular bilan bog'liq muammolari mavjud har qanday millat, davlatning kelajagi yo'q. Ularga yetarli sharoitlarni yaratib berish, e'tibor qaratish lozim.



YOSHLARGA

@YOSHLARDAFTARI.UZ ELEKTRON PLATFORMASI YOKI 1093 QISQA RAQAMLI "CALL-MARKAZ" ORQALI ONLAYN ARIZA QOLDIRISH VA MUROJAAT HOLATI TO'G'RISIDA MA'LUMOT OLIISH IMKONIYATI YARATILDI.



G'OLIBLAR KUTIB OLINDI



Avval xabar qilganimizdek, 21–29-may kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Sharja shahrida bo'lib o'tgan "5th Sharjah Masters International Chess Championship – 2022" xalqaro shaxmat turnirida Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov va Humoyun Bekmurodov kabi bir qancha yosh shaxmatchilar O'zbekiston sharafini himoya qilishdi.

31 davlatdan 100 ga yaqin shaxmatchilar dona surgan musobaqa natijalariga ko'ra,

9 imkoniyatdan 7 ochko to'plagan Nodirbek Abdusattorov chempionlar safidan joy oldi.

Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida mazkur turnir g'oliblari va terma jamoamiz vakillari tantanalik kutib olindi. Unda o'tgan haftada O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi raisi etib saylangan Alisher Sa'dulloyev ishtirok etdi.

– Hindiston, Ozarbayjon, Gretsiya, mezbond davlat vakillari bilan kuch sinashib, 5 g'alaba va 4 durangni qayd etdim. Natijaga ko'ra, chempion bo'ldim. Bu g'alabamdan xursandman, – deydi turnir g'olibi Nodirbek Abdusattorov.

Eslatib o'tamiz, Nodirbek Abdusattorov o'tgan yili FIDE jahon chempionatida shaxmatning rapid yo'nalishi bo'yicha jahon chempioni bo'lib, shaxmat tajini yurtimizga olib kelgandi. O'shanda o'zbekistonlik shaxmatchi chempionatning 10-turida jahon chempioni – norvegialik Magnus Karlsenni mag'lub etgan edi.

Lobar QODIROVA

PREZIDENTIMIZ ASARI QORAQALPOQ TILIDA CHOP ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari "Qoraqalpog'iston" nashriyotida qoraqalpoq tilida chop etildi.

Ushbu asarda bugungi kunda yurtimizda Yangi O'zbekistonning va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati, ustuvor yo'nalishlari, yurtimizning zamonaviy demokratik ko'rinishi qanday yaratilayotgani, mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun belgilab olingan strategik yo'l, milliy taraqqiyotimizning kelajagi haqida so'z yuritiladi.

Kitob O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist K. Reymov va jurnalist G. Pirnazarova tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi.

Dovud ABIBULLAYEV,
O'ZA muhбири

Bekzod MIRZAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni mas'ul xodimi

SOLIQ YUKINI KAMAYTIRISHDA

SOLIQ IMTIYOZLARINING AHAMIYATI

Bozor mexanizmini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri soliq yukini kamaytirishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari tizimi bo'lib, buning uchun soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, unga ta'sir etadigan salbiy ichki va tashqi omillarni minimallashtirish lozimdir.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan asosiy maqsad tizimni raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan yangi texnologiyalar bilan ta'minlashdir.

Buning natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorda talab ortib boradi. Bunda esa soliq imtiyozlarining iqtisodiy ahamiyati kattadir.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantiruvchi omillardan biri biznesda soliq yukini kamaytirish hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti hamda yuqori xavf-xatarlar mavjud bo'lganda investitsiya va innovatsion rivojlanishning eng kuchli vositalaridan biri soliq imtiyozlari tizimini yaratishdir.

MAMLAKATIMIZ HUDUDLARIDAGI TADBIRKORLIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH UCHUN TEGISHLI HUDUD IMKONIYATLARI INOBATGA OLINGAN HOLDA TADBIRKORLARGA MAXSUS SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH CHORA-TADBIRLARI HAM AMALGA OSHIRILIB KELINMOQDA.

Odatda investitsiya jozibadorligini oshirishda soliq imtiyozlari faol ishtirok etadigan vositadir, uni joriy qilishning ham o'z ahamiyati bor.

Soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlarining o'z ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishda, yangi texnologiyalarni joriy etishda, daromadlarni investitsiyalashni rag'batlantirishda samarali vosita bo'lib, bunday harakat kelgusida byudjetda soliq bazasi va daromad solig'i tushumlarining oshishiga olib keladi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining "iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish qayd etilgan va soliq imtiyozlarini qo'llash chora-tadbirlari bunda alohida ahamiyatga ega.

Mazkur chora-tadbirlarning ijrosi o'laroq tadbirkorlikning ko'plab sohalarda soliq imtiyozlarini belgilanishi kabi islohotlar amalga oshirilmoqda va bunga ko'plab amaliy misollarni aytib o'tish mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi qaroriga asosan, 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvargacha qadar tadbirkorlik subyektlari tomonidan chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mir-

lash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi va ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil qilsa, ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, yuridik shaxslar 2023-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda lichinka, baliq chavoqlari va tovar baliq yetishtirishdan, baliqchilik mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashdan olingan daromadlar bo'yicha aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan ozod etildi.

2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvargacha qadar baliqchilikni intensivlashtirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va texnologiyalar hamda qayta ishlash uskunalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan, biroq daromadning

Soliq kodeksining 337-moddasiga asosan, yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar foyda solig'i to'lashdan ozod etiladi.

BOLALIKDAN NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR, SHUNINGDEK, I VA II GURUH NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA QISMAN SOLIQ SOLISHDAN OZOD ETILADI.

Soliq kodeksining 380-moddasiga asosan, bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qisman soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 414-moddasiga ko'ra, yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat

birlashmalari va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 467-moddasiga asosan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston Chernobilchilari" assotsiatsiyasi bo'lgan va umumiy sonida nogironlar, urush va 1941-1945-yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan, nogironlar, urush hamda 1941-1945-yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi "0" foiz etib belgilangan.

Shu bilan birga, nogironlarni ishga yollagan tadbirkorlar soliq yukini kamaytirish maqsadida ish beruvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi davlat byudjetidan to'liq qaytarib berilishi joriy etildi.

To'g'ri tashkil etilgan soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarishni texnik, texnologik jihatdan yangilash uchun sarf etish mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatib, bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish imkonini beradi hamda eksportni qo'llab-quvvatlovchi vosita hisoblanadi.



“STREET WORKOUT”

Iqbol PARDAYEVA



Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish yoshlar yetakchilarining yana bir muhim vazifalaridan biridir. Bunda sportning ahamiyati katta. Shu maqsadda bugun ko'pchilik mahallalarda yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun zamonaviy sport maydonchalari foydalanishga topshirilmoqda.

Birgina Namangan viloyatida shu kunga qadar barcha mahallalarda jami 756 ta sport maydonlari, jumladan, 655 ta "workout", 15 ta 97,5 kilometr masofalik salomatlik yo'laklari va velosport yo'laklari, 59 ta stritbol, 17 ta mini-futbol va 10 ta badminton maydonlari tashkil etildi.

Davlatobod tumanidagi "Porloq" mahallasida ham Yoshlar ishlari agentligi buyurtmasiga binoan 2-tipdagi innovatsion "street workout" maydonchasi mahalla yoshlariga tantanali topshirildi. Endilikda yoshlar mazkur dargohlarda muntazam ravishda jismonan chiniquish imkoniyatiga ega bo'lishadi.




Oybek PO'LATOV,
"Porloq" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Ushbu maydonchaga Yoshlar jamg'armasi fondidan qariyb 750 million so'm mablag' sarfi etildi. Maydoncha brus, akrobatika anjomlari, yugurish yo'lagi, dam olish uchun o'rindiqlardan iborat bo'lib, tag qismi esa rezina qoplama bilan jihozlangan. Maydoncha bir vaqtning o'zida 80 nafarga yaqin yoshlarga xizmat ko'rsata oladi.

Hozirda ushbu turdagi "street workout" maydonchasi tumanda yagona hisoblanadi, kelgusida bunday maydonchalarni har bir mahalla, har bir ko'chaga qurish rejalashtirilmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va sportga qiziqishlarini yanada oshirishda bunday maydonchalarning ahamiyati katta.

Haqiqatan, mahallada bu kabi maydonchalarni mahalla yetakchilarining vazifalarini bajarishda yaxshigina yordamchi bo'lish bilan birga mahalla yoshlarining quvonchiga sabab bo'lmoqda.



Shohjahan YO'LDOSHEV,
"Porloq" mahallasidan:

– Biz, yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishimiz uchun mahallamizda zamonaviy "street workout" maydonchasi foydalanishga topshirildi. Endi maydonchaga kelib shug'ullanishimiz, professional darajadagi ustozlar bilan mashg'ulot o'tashimiz mumkin. Ochig'i, hozir hamma mahalladoshlarimizning sevinchi ichiga sig'mayapti.



16 TA BOLALAR UYI TUGATILGAN

Dunyo mamlakatlari bolalarni mehribonlik uylaridan oilalar bag'riga olishga intilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF) hisob-kitoblariga ko'ra, bugun 2,7 millionga yaqin bolani oilalar asrab olgan. O'zbekistonda ham bu boradagi ishlar jadal ketmoqda. Qonunchilikka muvofiq, bolalar muassasalari va farzandlikka, vasiylikka, homiylikka, oila tarbiyasiga olingan bolalar uchun ham imtiyozlar belgilangan.

Jumladan, bunday yoshlarga uy-joy berish va kvota asosida oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga kirishi uchun imkoniyatlar yaratilgan. 2022-yil holatiga ko'ra, 675 nafar mehribonlik uylari bitiruvchilariga hamda vasiylikka, homiylikka, oila tarbiyasiga olingan voyaga yetgan bolalarga turar joylar berildi. 267 nafar 2021–2022-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi. Davlat hisobidan 4 mingdan ziyod bolalarda murakkab jarrohlik operatsiyalari o'tkazildi.

Joriy yil mart oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, oilalarga asrab olinishi natijasida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari kamayganligi bois O'zbekistonda 10 ta Mehribonlik uyi, 4 ta Bolalar shaharchasi va 2 ta Bolalar uylari tugatildi.

Muxlisa ORIFOVA, O'zDJTU talabasi

2023-YIL 1-YANVARGA QADAR:

- 22 ta turdagi iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, baliq, sut mahsulotlari, meva, o'simlik yog'i) bo'jxona bojlari-dan ozod etiladi;
- oziq-ovqatni import qilishda bojlarni oshirilgan stavkada qo'llash to'xtatib turiladi;
- davlat xaridlarida oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish bo'yicha cheklovlar vaqtincha bekor qilinadi.

Foto Muhammad Amin

UCH AVLOD UCHRASHUVI

"Yoshlar ovozi" gazetasida uzoq yillar mehnat qilgan faxriylar, professional jurnalistlar va yoshlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.

Mashaqqatli mehnat egalarini diydorlashtirgan "Uch avlod uchrashuvi" dilkash suhbatlar, hazil-mutoyiba-yu, esda qolarli lahzalarga boy bo'ldi. Ma'nili odamlar davrasida bo'lsang, olam-olam ma'naviy zavq olasan. Darhaqiqat, ularning xotirasi sermazzun hayot, qaynoq ijodiy tafakkur, sabr-toqat kamtarlik va axloqiy poklik bobida, samimiylilik hamda qat'iyatda ibrat bo'ladi.



O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, "Yoshlar ovozi" gazetasi tahririyati va O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi hamkorligida o'tkazilgan uchrashuvda Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari Dilnoza Kattaxanova, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi raisi Olimjon O'sarov hamda Jabbor Razzoqov, Xurshid Do'stmuhammad, Ahmadjon Meliboyev, Karim Bahriyev singari taniqli jurnalist va olimlar, matbuot fidoyilari hamda yoshlar ishtirok etdi.

Uzoq yillik hamkasblar, ustoz-shogirdlar, qadrdon do'stlarni uchrashtirgan tadbirda butun umr xalq dardi deb yongan, gazetada qanot chiqarib, yuksaklarga parvoz qilgan Xurshid Do'stmuhammad, Mirzo Kenjabek, Ahmadjon Meliboyevlar gazetadagi o'z ish faoliyatini esga olganda, barcha tadbir ishtirokchilari o'zini o'sha davrlarga tushib qolgandek his etdi.

Jabbor Razzoqov: "Jurnalistikaga endi qadam qo'yayotgan yoshlar uchun bu gazeta har doim maktab bo'lib kelgan, ko'pchilik jurnalistlar ilk faoliyatini ushbu gazetadan boshlagan, hatto bir necha bosh muharrirlar ham yetishib chiqqan", - desa, Olimjon O'sarov "Yoshlar ovozi" gazetasiga "bosh muharrirlarni yetishtiruvchi inkubator", deya ta'rif berdi.

Ayniqsa, taniqli olim Xurshid Do'stmuhammadning gazeta "o'ladi"mi yoki qoladi degan savolga javobi e'tiborli bo'ldi: "Gazeta hech qachon o'lmaydi! Gazetani o'ladi, deganlar bekor aytibdi! Gazetasiz jamiyat ham, gazetasiz jurnalistika ham bo'lmaydi".

Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Dilnoza Kattaxanova so'zga chiqib, yig'ilgan mehmonlarga gazetaning bugungi kungacha yetib kelishidagi mehnatlari zoye ketmaganini ta'kidlab o'tdi hamda tadbirga tashrif buyurgan faxriylarga minnatdorchilik bildirdi.

Tadbir so'ngida faxriy ustozlar va yosh xodimlarning gazeta faoliyatida olib borgan fidokorona xizmatlari e'tirof etilib, ularga tashakurnoma hamda esdalik sovg'alari topshirildi.


Uch avlodni birlashtirgan uchrashuvning ikkinchi qismi ham ko'tarinki ruhda bir piyola choy ustida davom etdi.

**Shahruza SATTOROVA,
Mashhura NASRIDINOVA**



177 IMKONIYAT

BIZNES STARTAP G'OYALAR UCHUN



Prezidentimizning 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan yoshlarning biznes startap g'oyalari qo'llab-quvvatlashga doir choralar belgilangan.

Xususan, "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalari tanlovlarini tashkil etiladi hamda har bir tuman va shaharda kamida uch nafardan g'olibga grantlar beriladi. Grant mablag'lari eng yaxshi loyihalarning har biri uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha miqdorda taqdim etiladi. Grant mablag'lari 2022-2023-yillarda davlat byudjetidan moliyalashtiriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Yosh tadbirkorlar "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalari tanlovlarning tuman va shahar bosqichida ishtirok etish va imtiyozlardan foydalanish uchun tanlov tashkilotchilariga - tuman va shahar hokimliklari yoki Yoshlar ishlari agentligining tegishli bo'limlariga murojaat qiladi.

Tanlovlar 2021-yilning 1-oktabr sanasidan boshlab o'tkazilishi belgilangan.

Murojaatda talabgorning tadbirkorlik faoliyati va tanlangan (so'ralgan) tadbirda ishtirok etish yoki imtiyozdan foydalanishga doir salohiyatini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

Murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.


Orzulari osmon qiz edi

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ular nisbatan qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, o'z nomini qalbingizga muhrlab ketadi. Vatanga muhabbat va farzandlik burchini vujudiga jo aylagan Sitora Salomova shunday yoshlardan edi.

Sitora Salomova 1990-yilda Termiz shahrida oddiy o'zbek xonadonida dunyoga keldi. Dastavval shahardagi 13-maktabda, so'ng Termiz pedagogika kollejida tahsil oldi. Sitora bolaligidan sportga alohida mehr qo'ydi. 2003-yilda viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazida ustoz Erkin Toshqulov rahbarligida karate bilan shug'ullana boshladi va katta marralarga bel bog'ladi.

Maktab direktori bergan tavsiyaga ko'ra, Sitora Salomova o'rta maktabda a'lo baholarga o'qish bilan bir qatorda namunali xulqi, jamoat ishlaridagi faolligi bilan ajralib turgan. Ustozlar nasihati, tinimsiz mehnati evaziga shahar birinchiликlari, keyinchalik viloyat va respublika miqyosidagi musobaqalarda faol ishtirok etib, sovrindor va xalqaro turnirlarning g'olibiga aylandi. Sitora Salomova mehnatlari evaziga "qizil belbog" 4-kyu darajasini oldi.

— Qizimning orzusi jahon chempioni bo'lib, mamlakatimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish edi. Uning bu orzusini amalga oshirish maqsadida hatto eshigimizni qaqib kelgan sovcilarga ham rad javobini



berganmiz. Qizimning orzulari va maqsadlarini qo'llab-quvvatladi. Uning o'zi: "Jahon chempioni bo'lay, keyin turmushga chiqaman" — derdi. Ammo orzulariga erishay deganida bizni armonlarga tashlab ketdi. Jigarbandim 2019-yil 8-dekabr kuni ko'z o'ngimda 29 yoshida vafot etdi, — deydi Sitoraning otasi Raim Salomov.

Ota qalbida og'riqli armon va alam bo'lib qolgan jigarbandining pok ruhini yod etish istagi bilan najot qidiradi. Turli tashkilotlarga murojaat qilishni boshlaydi. 2021-yil fevral oyida Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasiga birinchi marta murojaat qilgani hech yodimdan chiqmaydi. Shu kunga ham bir yildan o'tibdi. Mana shu vaqtdan buyon hududimizda sport bo'yicha Sitora Salomova xotira turniri muntazam o'tkazib kelinmoqda. U o'qigan 13-maktabda muzey ham tashkil etildi.

Nargiza MUSAYEVA,

Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi axborot va media bo'yicha mutaxassisi



GUMON IYMONDAN AYIRADI

Yotoqxonadan o'qishga shosha-pisha ketar ekanmiz, eshikni qulflash yodimizdan ko'tarilibdi. Darsdan kelib qarasaq, qo'shni qizlar xonamizdagi narsalarni ko'rib turgan ekan.

Ulardan birining kitobi xonamizda qolganini, uni olish uchun kirganini aytib, kitobini olib chiqib ketdi. Birozdan so'ng xonadoshim akasi olib bergan soatini topolmay, qo'shni qizlardan gumon qildi. Boshqalar uning fikriga qo'shilishdi. Men esa aniq bilmay gumon qilmasliklarini aytdim. Ular fikrimga qarshi chiqib, shubha-gumonlarida qattiq turib oldi va uni o'g'ri deb haqorat qilishdi.

Bir necha kundan so'ng xonadoshim akasi sovg'a qilgan soati kurs-doshida ekanini, unga o'zi bergani yodidan ko'tarilganini aytdi. Yotoqxonaga kelib qo'shni xonadagi qizdan uzr so'radi.

Unutmang, gumon boshqalar oldida qadringiz yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Zarnigor ESHPO'LATOVA,
O'zDJU talabasi



Avtobus oynasidan tashqari-ga boqib ketarkanman, bu yo'l-ning oxiri yo'qdek go'yo. Har doimgi ko'chalar, mashinalar, odamlar. Daryo o'zaniga quyilishga shosha-yotgandek hamma qayergadir shoshgan: ishiga, o'qishiga.

Nega hamma insonlar shoshadi? Ular bir o'ylab ko'rganmikan, ish odamlarni emas, balki odamlar ishni yoki o'qishni boshqarishini.

Butun jamiyat bir xil qolipga tushib qolgandek. Bu qolipdan hech chiqolmayotgandek, buzolmayotgandek ko'rinadi. Ko'pchilik qalbi xohlayotgan istaklarini bajar-may, o'sha chegaralangan qolipda zanjirband bo'lib yashashda davom etmoqda. Atigi bir daqiq

bo'lsa ham qolipdan chiqishning imkoni bormi? Bor, albatta. Ammo bu imkoniyatdan foydalangan kimsa kulgi va tahqir yomg'iri ostida qoladi. Qolipdan zavq bilan otilib chiqqan qalb yaranaladi.

Nega bir lahza bo'lsa ham yurak amriga quloq tutib, go'zal ne'matlar-dan o'z vaqti bilan foydalanilmaydi? Axir hammamiz bir joyga boramiz-ku. Qalbmizga yo'l ochaylik, zero, bu ha-yotdan oz bo'lsa ham zavqlansin.

Avtobus oynasidan bu olamning shoshqaloq, maqsadsiz va bir qolipga tushib qolgan kimsalari ko'rinadi. Nahotki, bu qolipni o'zgar-tirib bo'lmaydi...

Saida SOBIROVA,
O'zDJU talabasi

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI TA'MINLANADI

Hozirgi kunda butun jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat yetish-movchiligi yoki g'alla mahsulotlari keskin kamayib ketishi dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Bu masala bizni ham chetlab o'tmaydi, al-batta. Xo'sh bozor tamoyilini kim nazorat qiladi, kim narx-navo keskin oshib ketishiga chek qo'yadi? AOKAda bo'lib o'tgan anjumanda shu kabi savollarga javob oldik.

Konferensiyada ma'lum qilindiki, fuqarolar doimiy tarzda yetarlicha

oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanadi. Zaxira manbaya tugab qol-maydi. Chunki o'lkamizda don serhosil bo'ladi, bu borada zarur chora-tad-birlar ko'riladi. Narxlar keskin oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

"Fuqarolar ehtiyojiga mos ravishda ishlab chiqarish ko'lami ham o'sib boryapti. Qo'rqishga, ortiqcha vahimaga hojat yo'q", — dedi mutasaddilar.

Ismigul JO'RAQULOVA, O'zJOKU 1-bosqich talabasi

Loyiha muallifi: Ziyoda RAHIMBOYEVA

XALQIGA HAYKAL BO'LGAN ASAR



Kitobxon yoshlarni qo'llab-quvvatlash va kitobxonlikka targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan loyihamizning uchinchi soni! Ushbu loyihada siz mutolaa qilgan yoki o'qishga ulgurmagan o'zbek hamda jahon adabiyotining eng sara namunalari, ular haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishishingiz, muhimi, har bir asar haqida tuzilgan savolli viktorinamizda ishtirok etib, o'z bilimingizni sinab ko'rishingiz mumkin.

Darvoqe, hamma savollarga to'liq va to'g'ri javob yo'llagan kitobxon tahririyat tomonidan maxsus sovg'a bilan mukofotlanadi.

Maqolani tayyorlashda "Hayrat.uz" sayti materiallaridan ijodiy foydalanildi



O'QING, UQING,
SAVOLLARGA
JAVOB YO'LLANG
VA MUKOFOT
EGASIGA
AYLANING!!!

Endi esa oramizda asarga qiziqib qolgan va hali o'qib chiqishga ulgurmagan yoshlarni mutolaga undaymiz, nafaqat o'qib, balki uqib, tayyorlangan savollarimizga to'g'ri va to'liq javob berib, tahririyat tomonidan maxsus sovg'aga ega bo'lishdek imkonni qo'ldan chiqarmang! Savollarimiz

1. "O'lsing sho'rvasidan yaqinining yovg'oni yaxshi", deb kim aytadi?

2. "Osiylik ila masjid orasida ne mushtaraklik bo'ldi?". General Skobelevning ushbu savoliga polkovnik Chaykovskiy nima deb javob berdi?

3. "Yo'qsillar hukumati" degan so'z Dehqonqulning onasiga qanday eshitildi?

4. "Ayollar erkagingiz bosmachi bo'lib ketibdi, shu chinmi, deydi" - xotining bu savoliga javoban Aqrab nima dedi?

5. "Mujohid" so'zining ma'nosi?

6. Chanishevning so'zlariga ko'ra, "bosmachi zotini tag-tomiri bilan qirib tashlash uchun" qancha askar olib kelingan edi?

7. Aqrab Chanishevning qaysi gaplaridan so'ng qochish niyatidan qaytadi?

8. Maktab o'quvchilarini "Paxta fronti"ga jo'natish vaqtida ota-onalar farzandlari bilan xayrlasha turib qanday maslahatlar berishadi?

9. Dehqonqulga paxta terish uchun etak bog'lashni kim o'rgatadi?

10. Maktab direktori egizak qizlariga kimlarning sharafi uchun nima deb ism qo'yadi?

O'z javoblaringizni joriy yilning 15-iyun sanasiga qadar yoshlar-ovozi@mail.ru pochta manziliga yuborishingiz mumkin, barchaga omad yor bo'lsin!

MILLAT ROMANLARI VA 130 YILLIK TARIX

BMT a'zosi - ozod O'zbekiston uchun bitgan 10 bob va 273 ta turli hajmdagi fasllarga o'zbek xalqining 130 yillik azobli tarixini sig'dirib, har bir satrga hayot bag'ishlab, jonlantira olgan yozuvchi Tog'ay Murod o'z so'zining ustidan chiqadi - o'zbek xalqiga haykal qo'ydi.

Haykal deb tan olinmish "Otamdan qolgan dalalar" romani 1986-1991-yillar oraliqida yozildi. Ammo asar qog'ozga tushgunicha yozuvchi 6 oy Surxon dalalarini kezdi, dehqonlar bilan birga, ular o'tirsa-o'tirdi, tursa-turdi. Qo'shilib, hatto chigit ham ekdi. Eng asosiysi, "bo'lajak" Dehqonqul bilan uchrashdi. Nihoyat, roman 1994-yilda "Sharq" nashriyot-matbaa konsermining bosh tahririyati tomonidan 75 000 nusxada chop etildi. Bu nashr oddiy nashr emasdi, bejiz Tog'ay Murodga Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti topshirilmadi. Chunki Tog'ay Murod ham xuddi Qodiriydek, undan roppa-rosa 70 yil o'tib ilk romani bilan adabiyotni larzaga solgan, butun millat o'qishi lozim bo'lgan yana bir roman muallifiga aylangan edi.

DEHQONQUL KIM?

Asardagi bosh obraz - Dehqonqul g'o'zalarining bargiga qarab qanday dori sepih kerak ekanini biladi, lekin kuni dalada, tuni beshik tebratish bilan o'tadigan rafiqasini hayotdan tobora to'yib, soviq borayotganini anglamaydi... Dehqonqul dori sepih o'tayotgan tayyora (samolyot) uchuvchisiga qanday ishoralar qilish kerakligini biladi, lekin asar davomida, umri davomida bir marta namoz o'qimaydi, Yaratgan nomini tilga olmaydi... Cho'ntagidagi oxirgi pulga bozordan "kattakon" mehmonlarga dasturxon yozish uchun mevalar sotib oladi, lekin uyidagi och, nimjon farzandlari xurmo bilan pomidorni farqlay olmaydi... Xo'jayev muallim xotini qo'shni viloyatdagi xushmanzara oromgohga bir haftaga olib borganida, rais xotiniga juhudi atlas olib berib, "shahardagi uzun yer ostidagi salqin" metrolarga olib tushganida bizning Dehqonqul homilador rafiqasining ko'ngli tusa-gan qizil olma uchun Denov bozoriga borishga ham erinadi, aniqrog'i, paxtalari sabab vaqtini qizg'anadi...

ENG OG'RIQLI ISYON

Azaldan din va qonunlar nuqtayi nazaridan o'z joniga qasd qilish har qanday vaziyatda ham oqlanmagan. Ammo qasd qiluvchi kim bo'lsa ham, shirin jonidan kechishigacha olib kelgan biror sababi bo'ladi. Shundaylardan biri Dehqonqulning umr yo'ldoshidir. Nega u o'ziga eng azobli va eng og'riqli o'limni ravo ko'rdi? Aslida, yashayotgan har bir kuni ham o'limi qadar og'ir edi, buni bolasining beshigiga qosh qalam bilan yozgan bitiklaridan ham sezish mumkin. Ayol kabi dahshatli o'limni tanlayotganlar butun O'zbekistonda o'sha paytda so'nggi ikki yil ichida 753 nafarga yetgan, achinarlisi, ularning hammasini turli yoshdagi xotin-qizlar tashkil etmoqda edi. Qizil filmlarda "Paxta ishq" qo'shig'ini kuylab, asl hayotda esa kuyib o'lishni afzal ko'rgan ayollarga atab leningradlik shoir Dudin "Ayollar yonmoqda O'zbekistonda" deya haqiqatlarni she'r qilib qog'ozga to'kdi.

“

BEJIZ TOG'AY MURODGA ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI TOPSHIRILMADI. CHUNKI TOG'AY MUROD HAM XUDDI QODIRIYDEK, UNDAN ROPPA-ROSA 70 YIL O'TIB ILK ROMANI BILAN ADABIYOTNI LARZAGA SOLGAN.



AHOLI UCH BOSQICHDA RO'YXATGA OLINADI

Toshkent shahar Uchtepa tumani 129-umumiy o'rta ta'lim maktabida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2023-yil aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori bajarilishi yuzasidan o'quv seminari tashkil etildi.

Seminarda Uchtepa tumani statistika bo'limi mutasaddilari ishtirokchilarga ro'yxatga olish 2023-yil 1-25-noyabr kunlari o'tkazilishi, ushbu tadbirga tayyorgarlik ishlarini tashkil etishda ko'cha nomlari, xonadon tartib raqamlarini shakllantirish, kadastr agentligi bilan hamkorlikda mahalla fuqarolar yig'inining kartografik sxemalarini yangilash, qo'shimchalarni kiritish haqida ta'kidlandi.

Mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi, tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uch yilga yaqin vaqt davom etadi. Ikkinchisi, asosiy bosqich bo'lib, bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruv o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi. Bu taxminan ikki oy muddatni tashkil etadi. So'nggi bosqich qariyb uch yil davom etib, olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinib, natijalar e'lon qilinadi.

Ushqun KARIMOV,

Uchtepa tumani statistika bo'limi boshlig'i



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI



Ilm o'rgan, yosh olimlar safida bo'!



- ✓ Maqsadimiz iqtidorli yosh olimlar va izlanuvchan yoshlarni aniqlash, ularning ilmiy tadqiqot va ixtirochilik salohiyatlarini rivojlantirish, amaliyotga keng joriy etish orqali ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;
- ✓ ularning intellektual, innovatorlik va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish hamda ilmiy izlanishlari, bilim sohalari bo'yicha loyihalar tayyorlab, xalqaro va respublika tanlovlarida qatnashishlarida ko'maklashish;

- ✓ ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha kengash tomonidan ilmiy-uslubiy jurnal chop etishni yo'lga qo'yish, ularning malakaviy bilimlarini oshirish uchun treninglar tashkil etish va ularni xalqaro, mahalliy grant dasturlariga tayyorlashdan iborat.

Rasmiy
sahifalarimiz :

- 🌐 ryok.uz
- 📧 respublikayosholimlar_uz
- 📷 yosholimlar_uz
- 📺 yosholimlar.uzb

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Sardor
SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100063, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 239-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharaq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi - 2 bosma taboa. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-655, Adadi - 10584. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish
uchun QR-kodini
telefoningiz orqali
skaner qiling.



1 2 3 4 5 6